

ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA TA'LIM-TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI

Xolmamatova Dilnavoz Rahmatilla qizi

Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

1-bosqich 025 6-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19118664>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar qadimgi davrdan VII asrgacha bo'lgan davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyasining rivojlanishini zamon talabi asosida o'rganib kelingani keng tahlil etilgan. Maqolada har bir ijtimoiy tizim, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqligi yoritib berilgan. Shuningdek, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham ijtimoiy jihatdan takomillashib borganligi, dastlabki diniy e'tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlar inson ongining ham shakllanib borishiga turtki bo'lganligi ochib berilgan. Bu jarayon minglab yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Ushbu talablar muayyan davrda yaratilgan yodgorliklarining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etganligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, pedagogik fikrlar, maktab, meros, ma'naviy ruh, asarlar, tarix, ma'naviy ruh, asar, avlod.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive analysis of the development of education, schooling, and pedagogical theory from ancient times to the 7th century, examined through the lens of modern requirements. The article highlights how every social system, its future, the prospects of humanity, and people's living standards are directly linked to the progress of science and culture. Furthermore, it reveals that in the process of human society's emergence, humans evolved both biologically and socially; factors such as the rise of early religious beliefs and the refinement of simple inventions served as catalysts for the formation of human consciousness. This process spanned thousands of years, during which rules of conduct and social requirements emerged as the foundation of human consciousness. The article scientifically substantiates that these requirements constitute the core content and essence of the monuments and heritage created during that specific period.

Keywords: Education, pedagogical thoughts, school, heritage, spiritual spirit, works, history, generation.

Аннотация. В данной научной статье представлен широкий анализ развития воспитания, школы и педагогической теории с древнейших времен до VII века, изученный на основе требований современности. В статье освещается прямая зависимость каждого общественного строя, его будущего, перспектив человечества и уровня жизни людей от развития науки и культуры. Также раскрывается, что в процессе становления человеческого общества человек совершенствовался как биологически, так и социально, а такие факторы, как ранние религиозные верования и эволюция простейших изобретений, послужили толчком к формированию человеческого сознания. Этот процесс охватывал тысячи лет, в течение которых возникли правила этикета и социальные требования, принятые за основу формирования сознания.

Научно обосновано, что эти требования составляют основное содержание и сущность памятников, созданных в тот конкретный период.

Ключевые слова: *Образование и воспитание, педагогические идеи, школа, наследие, духовный дух, произведения, история, поколение.*

KIRISH

Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun avvalo tarbiyalanishi zarur. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning yuzlab avlodlarini insonparvarlik, ilm-parvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, sahovat kabi umuminsoniy fazilatlari ruxida tarbiyalab kelgan, xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi.

Islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim-tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tadbiq etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir.[4] Ta'lim-tarbiya masalalari ulug' ajdodlarimiz yashagan davrdan bugungi kunga qadar muhim mavzu sanalib, uni tubdan isloh qilish har bir zamonning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.[5] Ta'lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlariga boy she'rlar inson turmushining turli tomonlariga oiddir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya yosh avlodni hayotga tayyorlash, yashashga, mehnatga, kasb-hunarga tayyorlash mazmuni, metod vositalari, muayyan tizim qonuniyatlar, insoniyat hayotining tarkibiy qismi sifatida rivojlangan. Har bir davrning talab qiladigan tarbiya talablari bo'ladi.

Sharqona tarbiya yoshlarni izzati, kattalarni hurmatini ta'minlaydi, unda insonni sog'lom, jismonan tetik, aqlan yetuk qiladigan mehnat tarbiyasiga katta ahamiyat berilgan. Har bir davrda, har bir xalq, millat, oilaning ta'lim-tarbiyasi qanday bo'lgan bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy darajasi shunday bo'lgan. Bizning ona diyorimiz O'rta Osiyo odam paydo bo'lgan ilk mintaqalaridan biridir. Qadimgi yozma manbalarda pedagogik g'oyalar, ilmiy bilimlar va yozuvning joriy etilishi, odam mehnat jarayonida atrofdagi tabiatni kuzatishlar natijasida bilimlar orttirib borgan.[3] Ushbu tadqiqot mazmuni ham har bir xalq, millat, oilaning ta'lim-tarbiyasi qanday bo'lgan bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy darajasini tahlil qiladi.

Asosiy qism

Ajdodlarimiz ma'naviyatining durdonalaridan biri bo'lgan "Avesto" da tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. „Avesto“da zardushtiylik uchta tayanchga asoslanadi: fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligidir. Bu g'oyalar insonning ma'naviyati yuksakligi va tarbiyalaganligini o'zida ifoda etadi.

„Avesto“ amalda bo'lgan tarixiy davrlarda bolalarga diniy va axloqiy tarbiya berilgan, shu tarzda ma'naviyat masalasi ustuvor mavqega va maqomga ega bo'lgan.[4] „Avesto“da Xuroson va Movarounnahr xalqlarining axloq-odob, ta'lim-tarbiya, kasb o'rganish, mehnatsevarlik, mehmondo'stlikka doir fikr-mulohazalari ham bayon qilinadi. „Avesto“da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan: a) diniy va axloqiy tarbiya; b) jismoniy tarbiya; d) o'qish va yozishga o'rgatish.[5] „Avesto“da Yunonistondagi ta'lim-tarbiya tizimidan 3-4 asr oldin didaktikaga komil inson g'oyasiga asos solingani aniqlandi. Ma'lumki, qaysi mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimi rivojlangan bo'lsa, shu mamlakat har sohada ilg'orlab ketgan.

“Avesto” ta’lim-tarbiya tizimida xalqni ezgulik g’oyasida birlashishi Qadimgi Yunonistonda ta’lim-tarbiya tizimidagi V-IV asrlardagi islohatlar mamalakatni fanlar o’chog’iga aylanishga sabab bo’lgan.[3] Alisher Navoiy tarbiyaning asosiy belgilaridan biri, bolaga yaxshi ism qo’yish, ilm-u adab o’rgatish, ota-onaga, umuman kattalarga hurmat hissini singdirishdan iboratligini uqtiradi.[4] Pedagogika va tarbiya insoniyat tarixida doimo muhim o’rin egallab kelgan. Qadimgi davrlardan boshlab insoniyat bilim olish, uni avlodlarga yetkazish va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga katta e’tibor qaratgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoy kabi madaniyatlar o’ziga xos ta’lim va tarbiya tizimlariga ega bo’lgan. Bu jamiyatlarda ta’lim davlat boshqaruvi, diniy va axloqiy normalarga mos keladigan darajada amalga oshirilgan. Misrda ruhoniylar va amaldorlar bolalariga maxsus maktablarda yozish-yozuv, matematika va astronomiya o’rgatganlar. Ular orqali davlatni boshqarish uchun zarur bilimlar yetkazilgan. Mesopotamiyada yozuv (klinopis), qonunchilik (Hammurapi qonunlari), me’morchilik kabi fanlar ta’lim tizimining asosi bo’lgan. Hindistonda esa diniy an’analar va Vedalar asosida ta’lim berilgan.



Klinopis yozuvlari



Hammurapi qonunlari yozilgan stela

Xitoyda Konfutsiy falsafasi asosida ta’lim ijtimoiy va axloqiy munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Konfutsiylikning asosiy tamoyillari, xususan, kattalarga hurmat va ijtimoiy tartib, ta’lim va tarbiyaning markazida turgan. Ushbu ta’lim tizimi axloqiy idealni shakllantirishga qaratilgan bo’lib, o’quvchilarga jamiyatda o’z o’rnini to’g’ri aniqlash va jamiyatga xizmat qilish vazifasi yuklangan. Xitoyda Konfutsiylik falsafasi asosida ta’lim berish jarayoni yuqori saviyada shakllangan bo’lib, uning falsafasida axloqiy tarbiya va jamiyatdagi ijtimoiy tartibni mustahkamlash yotadi. U yoshlarni kattalarga hurmat, ota-onaga itoat va davlatga xizmat qilish kabi axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashni talab qilgan. Antik Yunoniston va Rim madaniyatlari pedagogik fikrlar rivojida katta rol o’ynagan. Yunonistonning buyuk faylasuflari Suqrot, Platon va Aristotel pedagogikaning nazariy asoslarini yaratganlar.

• **Suqrot** ta’lim va tarbiyaga axloqiy tamoyillarni singdirgan. U o’zining so’roq qilish metodi orqali o’quvchilarni haqiqatni izlashga, mantiqiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishga undagan.

• **Platon** (yoki Aflotun) o’zining “Davlat” asarida ideal jamiyatni yaratishda ta’limning hal qiluvchi o’rnini ta’kidlagan. Platonning nazarida, jamiyatni boshqaruvchi, harbiy va ishlab chiqaruvchi sinflar aniq ta’lim tizimi orqali shakllanishi kerak. Uning fikriga ko’ra, davlat boshqaruvchilari falsafiy bilimlarga ega bo’lishlari lozim.

• **Aristotel** esa ta’limni jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy institut sifatida ko’rgan. Uningcha, ta’lim axloqiy fazilatlarini rivojlantirishi, insonni davlatga xizmat qiluvchi ideal fuqaroga aylantirishi lozim.[1]

VII asrda Oʻrta Osiyo arablar istilosi tufayli yangi rivojlanish bosqichiga chiqdi. Islom maʼrifiy taʼlimotida ikki darajali taʼlim amalga oshirilgan. Maktab va masjidlarda ilk diniy taʼlim berilgan. Keyingi bosqich madrasada amalga oshirilgan. Bu yerda shariat, ilohiyot, falsafa, mantiq, notiqlik, matematika, astronomiya, tibbiyotdan taʼlim berilgan. Bundan tashqari Qurʼon maktabi, fors maktabi, Qurʼon va fors tili maktabi va arab maktabi kabi maktab yoʻnalishlari boʻlgan.[2]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, eng qadimgi davrdan VII asrgacha taʼlim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, diniy eʼtiqodlar va siyosiy tuzumlar bilan uzviy bogʻliq ravishda rivojlangan. Ushbu davrda taʼlim va tarbiya ijtimoiy tuzumni saqlab qolish, diniy va axloqiy qadriyatlarni yetkazish, shuningdek, intellektual va axloqiy jihatdan yetuk shaxslarni shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan. Bu davrda taʼlim orqali davlat uchun zarur kadrlar tayyorlangan va diniy eʼtiqodlar avlodlarga yetkazilgan.

Faylasuflar tomonidan ilgari surilgan pedagogik gʻoyalar nafaqat oʻsha davr jamiyatiga, balki keyingi asrlardagi taʼlim tizimiga ham katta taʼsir koʻrsatgan. Qadimgi Sharq, Xitoy va Hindistonda taʼlim tizimi diniy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida katta ahamiyatga ega boʻlib, bu jarayonlar yodgorliklar va yozuvlar orqali bizgacha yetib kelgan.

Eng qadimgi davrlarda yoʻlga qoʻyilgan taʼlim-tarbiyaga oid qimmatli maʼlumotlarni biz yana xalq ogʻzaki ijodi namunalari: afsonalar, qahramonlik eposlari, qoʻshiqlar, maqol va iboralarda ilgari surilgan gʻoyalardan ham olishimiz mumkin. Chunki xalq donishmandligining yorqin namunasi bolgan xalq ogʻzaki ijodida xalq pedagogikasiga xos boʻlgan tarbiya tajribalari umumlashgan.

Pedagogik fikrlar jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyanagan holda turli pedagogik nazariyalarni, taʼlim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini oʻrgatadi. Shuningdek, shaxsning pedagogik faoliyatiga yordam beradi, uni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Islamova, F. (2024). Amaliy sanʼat orqali oʻspirin yoshdagi oʻgʻil bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash – kelajak taraqqiyoti sifatida. Nordic International University Research Journal, 3(0003), 1–12. Retrieved from <https://research.nordicuniversity.org/index.php/nordic/article/view/2216>
2. Oʻrta Osiyoda pedagogik qarashlar taraqqiyoti. (n.d.). 1–5-betlar. Retrieved from <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>
3. Saidova, N. M. (2022). Umumiy pedagogika. Buxoro. (5, 10, 12, 13-betlar).
4. Eshmurodova, G. X. (2023). Boshlangʻich taʼlim-tarbiyada pedagogik qonuniyatlar, tamoyillar, ilgʻor gʻoyalar (Oʻquv qoʻllanma). Qarshi. 5, 11, 21-betlar
5. Mardonov, Sh., & Zokirova, U. (2021). Pedagogika nazariyasi va tarixi (Oʻquv qoʻllanma). Toshkent: Ishonchli hamkor. 7, 13, 22-betlar.
6. Saidova, N. M. (2022). Umumiy pedagogika. Buxoro. (5, 10, 12, 13-betlar).

Ilovalar

7. <https://research.nordicuniversity.org/index.php/nordic/article/view/2216>

8. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/41608_2_EED947985D3F9FB813F48E2C1787FEAC5E2D62A2%20(3).pdf
9. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/pedagogika-nazariyasi-2%20(4).pdf
10. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/64bc0600681d2___ESHMURODOVA%20%20yangi%20kitob%202023-yil%20%2028%20%D0%BC%D0%B0%D0%B9%20(3).pdf